

Qulmatova Farog'at Abdumalikovna

*Surxondaryo viloyati Denov tumani 23-umumiy o'rta ta'lim maktab
amaliyotchi psixologi*

***Annotatsiya.** Maqolada kelajagimiz poydevori bo'lgan farzandlarimiz va ularning tarbiyasi haqida, tarbiya qachondan boshlanishi masalalari e'tiborga olingan. Farzand tarbiyasi haqidagi bilimlarni egallagan va tarbiyalangan bo'lishlari bilan birga, keyingi jarayonlar ham ijobiy tomonga qarab ketishiga zamin tayyorlanishi hamda boshqa masalalarining ahamiyati tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** oila, farzand tarbiyasi, oilaviy turmush, odob-axloq, bilim, ko'nikma, malaka va bilim, oila instituti, er-xotinning huquq va majburiyatlari, kelajak avlod.*

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida, "Ommaviy madaniyat" deyilayotgan mashhurlik yoshlar orasiga singib ketgan bo'lsa-da, uning tarbiyaga zid ekanligi, salbiy ta'sirlari endilikda bahs qilina boshladi. G'arb madaniyatdan o'rnak olib, kiyinish, muomala, yurish-turish, salomlashish kabi holatlar ko'zga tashlanmoqda. Natijada, asta-sekinlik bilan axloq-odobning salbiy tomonga o'zgarishi, ajdodlarimizdan davom etib kelayotgan qadriyatlar, urf-odatlar unut bo'libormoqda.

Farzand tarbiyasidagi ta'sirning yana bir sababchisi – internet, uyali telefon va ulardagi turli ijtimoiy tarmolardan noo'rin foydalanish bo'lib kelmoqda. Bu vositalardan unumli foydalanib, ulkan yutuqlarga erishish bilan birga noto'g'ri foydalanib, ma'naviy va moddiy tomondan zarar keltirib chiqarayotganini ham esdan chiqarmaslik kerak. Bugungi kunda internet tarmog'ida berilib borayotgan turli axborot oqimidagi to'g'ri ma'lumotlar bilan noto'g'risini ajrata olish, to'g'ri va maqsadli foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun farzandlarni

internet saytlarga kirishida axborotdan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish zarur.

Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud Axloq" kitobida quyidagi ibratli o'g'itlarni aytgan edi: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim".

Oilada tarbiya topgan xar bir inson xar jixatdan umuminsoniy ahloqiy, ilmiy, e'tiqod va boshqa sohalarda kamolatga yetgan hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o'zligini taniy boshlaydi.

Komillik insonning adolatli bo'lishi, xaqiqat va yaxshilikka intilishi, vijdonan pok, o'z hatolarini anglab, ulardan xalos bo'lishga xarakat qilishi demakdir, ma'naviyatni boyitish, iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli bo'lish kishilarni g'aflatdan uyg'otadi, barcha ezgu tilaklarini ro'yobga chiqaradi.

Yosh avlodni barkamol, sog'lom, Vatan tuyg'usini xis qila oladigan shaxs qilib voyaga etkazish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog'liqdir.

Yosh avlodda kelajakka bo'lgan ishonch xissini uyg'otish uchun esa, ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rgatish, ularning iste'dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, oilalarda moddiy boylikning ko'payishi, undan ota-onalar va bolalarning noto'g'ri foydalanishi, o'smirlarning bir qismida hayotga iste'molchilik, boqimandalik nuqtai-nazardan qarashni, tubanlikni, xudbinlikni keltirib chiqaradi, mehnatsiz boylik orttirish kayfiyati kuchayadi.

"Avesto"da insoniy burch faqat axloqiy yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirishdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to'g'risida ham o'ylashi zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash

uchun shunday qilingan. Ko'pbolali oilalarga nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan Oila mustahkamligini, farovonligini hamda kelajagini baxtli oila tamoyili darajasida ta'minlovchi omillardan biri farzandlardir. Yigit va qizning turmush qurishdan ham asosiy maqsadi nasl va zurriyot qoldirish hamda uning kamolini ko'rishdan iborat. Oilada tug'ilib o'sadigan bolaning kelajagi, birinchi navbatda, otaonaga bog'liq. Zero, tarbiya barcha sa'y-harakatlarning boshlanishidir. Abdurauf Fitrat "Oila" asarining "Farzand tarbiyasi" bo'limida "Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z otaonalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq", – deb keltiradi. Darhaqiqat, farzand tarbiyasi oilaga, ya'ni ota-onalar tomonidan berilgan tarbiyaga bog'liq. Ota-ona o'z farzandini namunali, ilimli, odobli va ma'naviy kamolot darajasida bo'lishini istaydi. Bu jarayonda juda ko'p mashaqqatli va zahmatli yo'llarni bosib o'tadi. Ammo ayrim ota-onalar bolaning ma'naviyatli va qobil inson bo'lib yetishuvida tarbiya birlamchi ekanini ko'zdan qochirib qo'yadilar.

Taniqli adib Abdulla Alvoniy: "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamotdir...", degan ekan. Aslida ham shunday, chunki farzandni yaxshi tarbiya topib voyaga yetishi oila va jamiyatda e'tiborga molik muhim narsalardan biri hisoblanadi. Bu haqda Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi va sallam: "**Ota – ona farzandiga go'zal odobdan ko'ra yaxshiroq narsa bera olmaydi**",- deb aytganlar. Chunki e'tiqodi va dunyoqarashi sog'lom farzand ota-ona xizmatini qilib, vataniga sadoqatli, komil inson bo'lib voyaga yetadi. Farzandning yaxshi, komil inson bo'lib, jamiyatda o'z o'rnini topishida tarbiya bilan birgalikda ilmning xizmati beqiyosdir. Zero, chiroyli tarbiya bilan ziynatlangan ilimli inson yurtimiz ravnaqi va kelajagi hisoblanadi. Insonning o'sib, kamolga yetishida ilmning zarurligini qisqa satrlarda ta'riflab berish qiyin, albatta. Bu to'g'rida dono xalqimizning ajoyib bir hikmatli so'zi bor; "Farzand aziz, tarbiyasi esa undanda aziz (*xalq maqoli*)". Xalqimizda odob-axloq va tarbiyaga bu qadar e'tibor berilishi bejiz emas, chunki inson ilmi bilan yeta olmagan cho'qqilarni chiroyli odob-axloqi bilan zabt etadi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Jamiyatda oilaning o'rnini, oilada farzand tarbiyasining ahamiyati katta. Insonning hayoti turli bosqichlardan o'tadi. Bular orasida eng ahamiyatli yoshlik bosqichidir. Bu davr o'ta nozik davr bo'lib, insonning quvvatga to'layotgan, hayotning turli so'qmoqlaridan o'tib borayotgan davr hamdir. Mana shu davrda unga oilada juda katta e'tibor ko'rsatish, ota-ona, ustozlar, ta'lim muassasalarining hayot chorrahalarida o'zining munosib o'rnini bilib olishi, ma'naviy komil bo'lib yetishishi, atrofdagi insonlarga munosabatini belgilab olishida ko'makchi bo'lishlari lozim. Zero, kelajakda odob-axloq, ilm-ma'rifat, halollik, rostgo'ylik kabi fazilatlarining egasi bo'lish mana shu kichik jamiyat bo'lgan – oila va bilim dargohlaridan boshlanadi.

Farzandlar millatning kelajagi bo'lgani uchun ham, ularning tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berilishi lozim. Insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishi yoshlik davridan bilina boshlaydi. Yoshligida undagi shakllangan sifatlar butun umri davomida hamroh bo'ladi. Mana shu sababdan ham jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi.

Manbalarda keltirilishicha, bola tarbiyasi uch bosqichda amalga oshadi. Birinchisi – turmush qurgunga qadar yigit va qizni oilaga tayyorlash hamda munosib jufti halol tanlash, ikkinchisi – homila davridagi parvarish, uchinchisi – farzand dunyoga kelgan kundan boshlab beriladigan tarbiya. Farzand tarbiyasining birinchi bosqichida turmush qurish arafasida turgan bo'lg'usi kelin va kuyovlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalari e'tiborga olinadi. Bo'lg'usi kelin-kuyovlar o'zlari oilaviy turmush haqidagi bilimlarni egallashi va o'zlari ham tarbiyalangan bo'lishlari bilan birga odobli va salohiyatli juft tanlashlari muhimdir. Farzand tarbiyasidagi bu bosqich to'g'ri asosda yo'lga qo'yilsa, keyingi jarayonlar ham ijobiy tomonga qarab ketishiga zamin tayyorlanadi va bunda nikoh masalasining ahamiyati salmoqlidir.

Pedagogik manbalarda shaxsni shaxs bo'lib shakllanishida uchta omilning ahamiyati muhim ekanligi keltiriladi. Birinchisi – atrof-muhit, ikkinchisi – ta'lim va tarbiya va uchinchisi – irsiyat. Sohibqiron Amir Temur ham o'z davrida o'g'il uylantirish, kelin tanlash hamda farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga

ko'targanligi ham bejiz emas. Oilaning mustahkam bo'lishidagi asosiy mas'uliyat oila boshlig'i zimmasida, deb bilgan Sohibqiron: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Odamlar orqali salomatligini, jismoniy kamolotini aniqladim, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta tomosha berib, kelin tushirdim", – deydi.

Yetuk jamoat arbobi Abdurauf Fitratning "Oila" nomli asarida ham farzand tarbiyasida oilaning o'rni, tarbiya turlari haqida o'zining qimmatli fikrlari keltirib o'tgan. Xususan «Oiladagi eng og'ir vazifa – bola tug'ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir» – degan tilloga teng fikrlari hanuzgacha xalqimiz hayotida o'z isbotini topgan. Oilada bola tarbiyasiga bo'lgan e'tibor katta bo'lishi kerak negaki, bola ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar hayotdagi ilk ko'nikmalarni oiladan oladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, oila bu tarbiya qo'rg'onidir. Xuddi shu tarbiya qo'rg'onida farzand tarbiyasiga umuman olganda oiladagi hamjihatlikka ota-ona mas'uldir. Farzand bu qo'rg'onida hayoti davomidagi ilk ta'lim va tarbiyani olar ekan, albatta bu qo'rg'on mustahkam bo'lishi kerak. Negaki, shu ulug' qo'rg'onida olgan ilk tarbiya va ta'lim qanchalik kuchli bo'lsa, inson hayoti davomidagi qolgan kerakli ma'lumotlarni to'plashda qiyinchilik bo'lmaydi va jamiyat hayotiga moslashib ketish ham oson bo'ladi. Har bir ota-ona ularning farzandlari jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlaridek og'ir mas'uliyatni o'z zimmalariga olar ekan birinchi o'rinda o'zlari farzandlariga o'rnak bo'la bilishlari kerak. Chunki donishmand xalqimiz aytganidek "qush uyasida ko'rganini qiladi". Oiladek mustahkam qo'rg'o'nimizning asl posponlari ota-onalarimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova . "Maktabgacha pedagogika" Toshkent 2019-yil.
2. Muslimov N. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" Toshkent 2015y
3. Musurmonova O. "Umumiy pedagogika" Toshkent 2020-yil.

4. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o'ziga xosliklari. *Мақтабгача таълим журналі, 3*(Preschool education journal).
5. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish yoshi va o'ziga xos xususiyatlari. *Мақтабгача таълим журналі, 3*(Preschool education journal).
6. Qilichova, M. X. (2021) Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning xorij davlatlaridagi ilg'or texnologiyalari. *Academic research in educational sciences, 2*(11), 739-746 Qilichova, M. X. (2021). Ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsion yondashuvning mazmuni. *Academic research in educational sciences, 2*(10), 917-921.